

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 268 sahifa.
2025-yil, 15-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	



DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Budjet hisobi va g'aznachilik kafedrası professori

Email: a.ostonokulov@tsue.uz

ORCID: 0000-0003-2792-3174

Annotatsiya. Maqolada davlat ta'lim tashkilotlarida qurilish xarajatlari hisobining nazariy jihatlarini tadqiq etilgan. Qurilish xarajatlari hisobiga oid adabiyotlar tahlil qilinib, ushbu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Qurilish xarajatlarini tan olish, baholash va ularning hisobini yuritish masalalari oliy ta'lim tashkiloti misolida o'rganilgan. Qurilish xarajatlari ustidan nazoratni ta'minlashda hujjatlashtirish jarayonlari hamda hisob ishlarini tashkil etishning muhim jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarida qurilish xarajatlari hisobiga oid muammoli va munozarali holatlar tahlil qilinib, ularning salbiy oqibatlarini aniqlangan. Natijada, oliy ta'lim tashkilotlarida qurilish xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tashkiloti, qurilish, xarajatlar smetasi, budjet hisobi, hisob ishlari, hisobot.

Abstract. The article studies the theoretical aspects of construction cost accounting in state educational institutions. A review of the literature on construction cost accounting is carried out, revealing its specific directions. Issues related to the recognition, assessment and accounting of construction costs are studied using the example of a higher educational institution. Important aspects of documentation and accounting in ensuring construction cost control are presented. Problematic and controversial situations related to construction cost accounting in higher educational institutions are studied, and their negative consequences are presented. Proposals and recommendations are formulated to improve construction cost accounting in higher educational institutions.

Key words: educational organization, construction, cost estimate, budget calculation, account work, report.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические аспекты учета затрат на строительство в государственных образовательных учреждениях. Проведен обзор литературы по учету затрат на строительство и выявлены его конкретные направления. На примере высшего учебного заведения рассматриваются вопросы, связанные с признанием, оценкой и учетом затрат на строительство. Представлены важные аспекты документооборота и учета в обеспечении контроля затрат на строительство. Исследованы проблемные и спорные ситуации, связанные с учетом затрат на строительство в высших учебных заведениях, и представлены их негативные последствия. Сформулированы предложения и рекомендации по совершенствованию учета затрат на строительство в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: образовательное учреждение, строительство, смета, бюджетный учет, бухгалтерский учет, отчетность

KIRISH

Davlat ta'lim muassasalariga sarflanadigan budjet xarajatlari global miqyosda katta ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda joriy va kapitallik budjet sarflari hamda transfertlarni o'z ichiga olgan davlatning ta'lim uchun yo'naltirgan mablag'i YalMning o'rtacha 5,22 foizini tashkil etib kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich ayrim mamlakatlarda 8 foiz atrofida, boshqalarida esa 3 foizdan pastroq darajada bo'lgan. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi misolida qaraydigan bo'lsak, soha so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2014-yildan 2024-yilgacha oliy ta'limga qamrov 6,8 foizdan 47,7 foizgacha oshgan va 2024–2025 o'quv yili boshida 18–23 yoshdagi aholi orasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 47,7 foizni tashkil etgan. Bu holat 7 barobardan ortiq o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, 2024–2025 o'quv yili boshida talabalar soni 1 432,8 ming nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2015–2016 yillardagi 264,3 ming nafar bilan taqqoslaganda qariyb 5,4 baravar oshgan [8]. 2023-yilda davlat budjeti doirasida ijtimoiy sohalarga 13,7 foiz YalM miqdorida mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 30,1 trln so'm ta'lim muassasalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan (har 6 oy davomida). Davlat oliy ta'lim tizimida qurilish ishlari



qiymati 2022-yilda qariyb 4,1 trln so'mni tashkil etgan — bu oldingi yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichdir [9].

Mamlakat rahbarining ma'ruzalarida davlat oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi binolar qurish va mavjudlarini ta'mirlash ishlarini samarali rejalashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Prezidentning ta'lim sohasiga oid strategik forumlarida qabul qilingan qarorlarda qurilish xarajatlarini raqobatbardoshlik va samaradorlikni ta'minlash asosida rejalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda bu yo'nalishda qator izlanishlar olib borilganini ko'rish mumkin. Eastman (2023) o'z tadqiqotida ta'lim muassasalarida har bir qurilish-ta'mirlash loyihasida mas'ullik, budjetlashtirish va sarf nazorati tizimi yo'lga qo'yilsa, loyihalar o'z vaqtida va belgilangan budjet doirasida bajarilishini ta'kidlagan [7]. Ahmed et al. (2022) esa dastlabki rejalashtirish va nazorat mexanizmlarining yetishmasligi qurilish xarajatlarining oshishiga sabab bo'lishini qayd etgan [6]. Alfred Kweku (2023) Ukrainadagi universitetlar misolida olib borgan tadqiqotlarida mutaxassislarning yetishmasligi hamda byurokratik to'siqlar qurilish xarajatlarini nazorat qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar ekanini ko'rsatgan [3].

Xiaobing Yu va Zuo (2022) ishlab chiqqan Big Data + AHP metodologiyasi qurilish xarajatlarini nazorat qilishda yuqori aniqlikni ta'minlashi va loyiha natijalarini umumlashtirishda samarali vosita bo'lishini isbotlagan [4]. Mohd Fairullazi Ayob et al. (Malayziya) Life Cycle Cost (LCC) yondashuvining ta'lim muassasalari binolarida xarajat samaradorligini oshirish uchun muhim strategiya ekanini ko'rsatgan, biroq universitetlar uchun maxsus yo'riqnomalar yetishmasligini qayd etgan [5].

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlari hisobini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlar hozircha kam. Biroq yuqorida keltirilgan xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda, ilmiy asos sifatida qo'llanishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Olib borilgan izlanishlar va ularning yo'nalishlari

Manba va Avtorlar	Tadqiqot mavzusi	Qo'llash yo'nalishlari
Hirji et al. (2022), Ngacha & McDonald (2023)	Real-time cost monitoring	Elektron ma'lumot tizimlarini joriy etish
Zafarzadeh et al. (2022)	Activity-Based Costing va System Dynamics	An'anaviy buxgalteriya hisobini takomillashtirish
Ayob et al. (2023)	LCC jarayonlari	Uzoq muddatli binolar ta'mirlash xarajatlarini prognoz qilishda qo'llash
Xiaobing Yu & Zuo (2022)	Big Data + AHP analitika	Axborot tizimlari orqali yonilg'i va material xarajatlarini nazorat qilish
Ahmed et al. (2024)	BIM texnologiyalari	Avtomatlashtirilgan smeta va prognoz uchun modellar joriy etish
Houghton (2024) The Australian article	Ta'limda xarajatni chuqur hisoblash	Talabalar va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha xarajatni aniq hisoblash tuzilmalari

Shu tariqa, xalqaro adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlarini nazorat qilish va rejalashtirish jarayonida zamonaviy usullarni qo'llash taklif etiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarni real auditorlik amaliyoti, budjet nazorati hamda huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari asosida yig'ildi. Tahlil qilishda qiyosiy va dinamik tahlil usullari, gorizontal va vertikal tahlil, shuningdek, moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizam"ga muvofiq, har bir budjet



tashkiloti hamda budget mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini mustaqil ravishda tuzishi, tasdiqlashi va ro'yxatdan o'tkazishi lozim. Smetalar va shtat jadvallari yagona formatda, million so'mda tuziladi va joriy moliya yili davomida amal qiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish jarayoni yuridik shaxs maqomiga ega tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi hamda tegishli kartochka orqali rasmiylashtiriladi. 2023-yildan boshlab ushbu jarayonlar qog'oz shaklida emas, balki faqat elektron tizim orqali — moliya so'rovlari, smetalar va shtat jadvallarini raqamli tarzda yuborish orqali amalga oshirilmoqda (2-jadval).

2-jadval. 2025-yil uchun oliy ta'lim muassasasi smeta va shtatlar jadvali [9]

Xarajat tarkibi	smeta (mln. so'm)
Kapital ta'mirlash	1 200,0
Kapital rekonstruksiya	800,0
Joriy ta'mirlash	400,0
Moddiy resurslar (material)	300,0
Mehnat fondi	600,0
Jami	3 300,0

“Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” yo'riqnomaga muvofiq, budget tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobi tijorat muassasalariga xos hisob-kitoblardan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, pul oqimlari, aktivlar, majburiyatlar va xarajatlar moliyaviy hamda balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Hisobvaraqlar tizimi beshta asosiy bo'limdan iborat: moliyaviy bo'lmagan aktivlar, moliyaviy aktivlar, majburiyatlar, moliyaviy natijalar va balansdan tashqari hisoblar.

Qurilish xarajatlarga oid operatsiyalarni buxgalteriya hisobida quyidagi tarzda aks ettirish lozim:

Debet — “Kapital ta'mirlanishi uchun xarajatlar”

Kredit — “Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari”

Debet — “Joriy ta'mirlash xarajatlari”

Kredit — “Joriy yil xaridorlik majburiyatlari”

Debet — “Mehnat fondi”

Kredit — “Xodimlarga to'lanadigan ish haqi”

Ushbu buxgalteriya o'tkazmalari BHS 2-sonli “Yagona schyotlar rejasi”ga muvofiq tartibga solinadi. Oliy ta'lim muassasalari smeta va boshqa joriy xarajatlar hisobotlarini shakllantirishda BHS 3-sonli “Budget hisoboti” talablariga amal qiladi. Mazkur hisobotlarda sarflar guruhlar bo'yicha, sarflangan mablag'lar miqdori hamda ijro darajasi kesimida ko'rsatiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda choraklik (2-shakl) va yillik hisobotlar taqdim etilishi shart [1].

gov.uz portalida 2024–2025-yillar davomida ta'lim sohasiga ajratilgan loyihalar va ularning xarajatlari bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Birinchidan, 2024-yilda qurilish ishlariga ajratilgan mablag'lar hajmi 105,1 foizga oshgan [2]. Ikkinchidan, axborot tizimlarini rivojlantirish va yangi binolar qurilishiga yo'naltirilgan xarajatlarning samaradorligini oshirish maqsadida milliy budget tizimida qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan (3-jadval).

3-jadval. Qurilish ishlariga oid ko'rsatkichlar tahlili

Ko'rsatkich	2024 y. (mln. so'm)	2025 y. prognoz	O'zgarish (%)
Qurilish ishlari	1 100,0	1 156,6	+5,1%
Kapital investitsiyalar	900,0	917,9	+2,0%

* Oliy ta'lim muassasasining moliyaviy hisob ma'lumotlari

Bu tahlil oliy ta'lim muassasalari rahbariyatiga sarflarni rejalashtirish va monitoring jarayonida strategik qarorlar qabul qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlarini rejalashtirish, hujjatlashtirish va hisobotlashtirish tartiblari huquqiy asoslarda shakllantirilgan.

Ichki nazorat va audit tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlari auditi jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Shu yo'nalishda auditni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni kengroq qo'llash hamda ilg'or amaliyotni joriy etish imkoniyatlari mavjud. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish



qiymati 10 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan obyektlarda nazorat o'Ichovlarini samarali tashkil etish, vakolatlarni aniq belgilash hamda inspeksiya tizimini takomillashtirish audit sifatini oshirish va moliyaviy nazoratni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Smeta va xarajatlar smetasining aniqligini oshirish ham alohida e'tibor talab etadi. Qurilish ishlarini smetalash jarayonida raqamli hisob-kitob tizimlarini joriy etish, xarajatlar hajmini aniq prognozlash va avtomatik tekshirish mexanizmlarini yaratish smetalarning ishonchligini ta'minlaydi. Masalan, Jizzax tumanida obodonlashtirish obyektlarida aniqlangan ortiqcha xarajatlar kabi holatlarning oldini olish uchun yagona elektron nazorat platformasini joriy etish, xarajatlarni real vaqt rejimida kuzatish va ularni normativ bazaga avtomatik bog'lash taklif etiladi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida ham materiallar va xizmatlar bo'yicha smetalarni yanada aniq va shaffof shaklda tuzish imkonini beradi.

Davlat maktablari va bog'chalarini qurish hamda ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash bo'yicha ham ilg'or yondashuvlarni tatbiq etish rejalashtirilmoqda. Bu yo'nalishda elektron budjet nazorati, xarajatlarni monitoring qilish va audit hisobotlarini avtomatlashtirish tizimlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prognozlarga ko'ra, mazkur islohotlar oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlarini hisob va tahlil qilish tizimining samaradorligini oshiradi, budjet mablag'laridan foydalanish jarayonida shaffoflikni kuchaytiradi va korrupsiya xavfini minimallashtiradi. Normativ-huquqiy hujjatlarni uyg'unlashtirish hamda raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish natijasida qurilish jarayonlarida moliyaviy intizom mustahkamlanadi, bu esa ta'lim infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlari hisobini takomillashtirish masalasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning samaradorligi va shaffoflik darajasi mamlakatning ta'lim sifati hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv va aniq islohotlar zarur.

Hozirgi kunda qurilish xarajatlarini rejalashtirish va smetalash jarayonlari yanada takomillashtirilishi mumkin. Bu yo'nalishda aniqlik va shaffoflikni oshirish, mavjud mexanizmlarni raqamlashtirish orqali mablag'lardan samarali foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Xususan, "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvalarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizom hamda "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Yo'riqnomalarning o'zaro uyg'unlashuvi ustida ishlash ularning amaliyotda yanada aniq va izchil qo'llanishini ta'minlashi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida qurilish xarajatlari bo'yicha nazorat va audit tizimlarini raqamli platformalar asosida kuchaytirish orqali mablag'larning oqilona taqsimlanishini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish va monitoring tizimini rivojlantirish bu yo'nalishda samaradorlikni oshirish, korrupsion xavflarni minimallashtirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni o'zaro muvofiqlashtirish, ularni yagona elektron tizim orqali amalga oshirish qurilish xarajatlari hisobi ustidan yanada aniq, tezkor va shaffof nazorat o'rnatish imkonini beradi. Bu esa smetalarning sifati va hisobotlarning ishonchligini oshirishga olib keladi.

Prognozlarda shuni ko'rsatadiki, tizimli islohotlar natijasida ta'lim sektorida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, infratuzilma rivojlanish sur'atlari tezlashadi hamda bu jarayon o'quv va ilmiy faoliyat sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi. Shu orqali oliy ta'lim muassasalari o'z mablag'larini oqilona boshqaruvchi, zamonaviy raqamli nazorat tizimlariga ega bo'lgan samarali institutlarga aylanishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tashkilotlarida qurilish xarajatlari hisobini takomillashtirish moliyaviy nazoratni kuchaytirish, smeta va buxgalteriya hisobini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash, normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali amalga oshirilishi zarur. Bu chora-tadbirlar ta'lim muassasalari faoliyatini yanada samarali va shaffof qilish imkonini beradi.

Qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Qurilish xarajatlarini tan olish va baholash jarayonini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar hamda avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlarini keng joriy etish lozim. Masalan, Building Information Modeling (BIM) texnologiyasi xarajatlarni aniq hisoblash, tahlil qilish va monitoring qilish imkonini beradi. Xarajatlarning barcha turlarini standartlashtirilgan formada hisobga olish uchun yagona metodologiya ishlab chiqilishi zarur. Bu metodologiya O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, "Budjet hisobining standarti" bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Qurilish xarajatlarini buxgalteriya hisobida yagona standart asosida yuritish, BHS 2-sonli "Yagona schyotlar rejas"i hamda BHS 3-sonli "Budjet hisoboti" talablariga muvofiq tashkil etilishi lozim. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlarini joriy etish qo'l mehnatini kamaytiradi, inson xatosini bartaraf etadi va ma'lumotlarni tezkor olish imkonini yaratadi.

Qurilish xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish uchun oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimlarini takomillashtirish, elektron monitoring va real vaqt rejimidagi hisobot tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. Davlat va jamoatchilik nazoratini kengaytirish, "Tashabbusli budjet" mexanizmlarini qo'llash shaffoflikni oshiradi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida qurilish xarajatlarini hisoblash, rejalashtirish va hisobot berish tartiblari bo'yicha Nizom hamda Yo'riqnomalarni uyg'unlashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish lozim. Qonunchilikda raqamli texnologiyalarni joriy etish va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha aniq normalar belgilanishi kerak. Oliy ta'lim tashkilotlari xodimlari uchun moliya va buxgalteriya sohasidagi yangi standartlar, raqamli texnologiyalar hamda audit usullari bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish zarur. Bu malaka oshirish tizimi sohada eng so'nggi amaliyotlarni joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, qurilish xarajatlarini avtomatlashtirilgan tizim orqali boshqarish uchun maxsus modul ishlab chiqish va uni mavjud boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu yondashuv xarajatlarni to'liq elektron shaklda hisobga olish, monitoring qilish va hisobotlarni aniq, tezkor tarzda tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BHS 3 sonli "Budjet hisoboti" nomli Budjet hisobi standarti
2. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom
3. Alfred Kweku Attom Prah. Evaluation of Project Cost Management Practices in Tertiary Institutions in Ghana: A Case Study of the University of Cape Coast. RSIS International. 24 July 2025
4. Xiaobing Yu, Hengzhong Zuo. Research on Construction Cost Control Technology of Construction Project Based on Big Data Analysis Theory. onlinelibrary.wiley.com. 27 August 2022
5. Mohd Fairullazi Ayob and others. Life cycle cost (lcc) of university building maintenance: a systematised review. planningmalaysia.org. Volume 23, Issue 1, 2025
6. Ahmed Mohamed Safaa-eldin and others. Cost Management of Construction Projects Using BIM Technology. April 2024
7. Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Liston, K. (2011). BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling for Owners, Managers, Designers, Engineers and Contractors. Wiley.
8. O'zbekiston Axborot agentligining rasmiy sayt ma'lumotlari
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayt ma'lumotlari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100